

OILADA FARZANDNI KITOBOXONLIK RUHIDA TARBIYALASH USULLARI.

Toshova Shaxnoza Tojinorovna

Termiz Iqtisodiyot va servis universteti

“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tel:99.421.18.20 e-mail: shaxnozatoshova11@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bola tarbiyasida kitobning o`rnii judayam muhimligini, kitob tafakkurning oltin qanoti sifatida inson ma`naviy dunyosini boyitishini ta`kidlab, kitobni yuksak yaratuvchanlik va ijodiyot vositasi sifatida qadrlamoq va undan samarali foydalanmoq lozimligini aytib o’tilgan. Maktabgacha yosh davrini mutaxassislar bola hayotining “Mo`jizalar davri” deya nomlaganlar. Bu davrda bolalar kitob o`qishga tayyorlanadi hamda avval nutq malakalari, eshitish va so`zlashishga o`rgatishi to’g’risida so’z yuritilgan.

Tayanch so’zlar: Maktabgacha yosh bolalar, tarbiya, oila, kitobxon, ta’lim, ota-on, Bolalarni kitobxonlikka bo’lgan qiziqishlari avvalo oiladan boshlanadi. Zero shaxs shakllanishining bosh omili ham oila hisoblanadi. Bolani kitob o`qishga o’rgatishni albatta oiladan boshlash juda ijobiy natija berib, bu ishni keyinchalik maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirish kutilgan natijani yanada samarali bo’lishini ta’minlaydi. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham shu maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-on a bolalarni kitobga bo’lgan qiziqishlarini orttirishda o’zlarini namuna bo’lishlari va o’zlarini kitob mutolaa qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-on kitobga mehr qo’yan bo’lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo’ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo’ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so’zi, qilayotgan ishini o’ylab bajaradigan, bir so’z bilan aytganda, o’zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo’lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o’zbek xalq ertaklaridan so’zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylilik, mehmono’stlik kabi insoniy

fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarini tarbiyalaydi.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lismiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi", aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir.

Yuqoridaagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin:

- Bolani kitobga qiziqtirish uchun o'zingiz namuna bo'ling;
- O'qigan kitobingizdan namunalar o'qib bering yoki hikoya qilib bering;
- So'zlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling;
- Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bo'lim tashkil eting;
- Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling;
- Farzandingizga tovush chiqarib, sanoq she'rlarni, tez-tez takrorlanuvchi satrlardan iborat bolalar she'rlarini, rasmi li kitobchalarini, turli hikoya va ertaklarni muntazam o'qib bering;
- Kichkintoylar uchun mo'ljallangan kutubxona va kitob do'koniga vaqtiga vaqtiga bilan olib boring;
- Talagan kitoblaringiz pedagogik-psixologik talablarga javob bersin.

Ota-onalar farzandlari bilan tarbiya borasida suhbatlashishlari uchun ba'zan, o'ylab, hatto yillab vaqt topa olmayaptilar. "ommaviy madaniyat", "demokratiya bu faqat o'zi uchun yashash" degan buzg'unchi g'oyalar avj olayotgan bir davrda biz o'zbek oilalarida milliy qadriyatlarni saqlagan holda farzandlarimizga kitobga bo'lган mehrni, qiziqishni yoshligidanoq singdirish lozim.

Bugungi kunda bolalarni tarbiyalash jarayonida nafaqat insonlar balki qo'shimcha talim vositalarining ham beqiyos. Masalan, kitob, gazeta va jurnallar, virtual o'yinlar, turli ko'rinishdagi tarbiyaviy ahamiyatga ega o'yinchoqlarga ham talab ortib bormoqda. Garchi virtual olamning ahamiyati va tezligi yuqori bo'lsada, hozirga qadar jamiyatimizda o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotmagan kitoblar aniqrog'i farzandlarimizni yoshligidanoq, oila muhitida kitobga bo'lган qiziqishlarini shakllantirish xususida fikrlarimizni davom ettiramiz. Inson o'z umrini mazmunli o'tkazishi uchun, avvalo o'zini o'rab turgan olamni tushina bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo'lishi lozim. Bu borada kitobning o'rnini hyech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi. Inson butun umri davomida kitob bilan xamnafas va hamkordir.

Kitob hamma davr va xalqlarning eng ulkan kashfiyotidir. Tarixda qabilalar, odamlar hatto buyuk insonlar ham yo'qolib ketishgan, lekin kitobda ularning hayoti saqlanib qolishi barobarida kitoblar o'zining mo'jizakor va sehrli kuchi bilan necha -necha asrlardan buyon elga marifat, manaviyat va ziyo tarqatib kelmoqda. Shuning uchun ham u nihoyatda katta tasir kuchiga ega. "Kitob tafakkurning qo'sh qanotidir", deb tarif berishganida uning ma'naviy olamni boyitishi, yuksak ijodiy olami haqida so'z yuritilgandir ehtimol.

Bolaning kitobga nisbatan mehrini shakllantirishni yoshligidanoq oila muhitida boshlamoq joizdir. Buning uchun bir qancha omillar mavjud:

- Oilaviy muhit;
- Ota-onaning savodxonligi;
- Oilaviy kutubxonanining mavjudligi;
- Ayollarning xomiladorlik vaqtida kitob o'qishi;
- Bola tarbiyasida milliy qadriyatlarni murojaat qilish (alla aytish);
- Kattalarning bolalarga xalq va jahon ertaklarini bolalar tilida aytib berishi;
- Bolalari bilan ko'proq rasmiy kitoblar tomosha qilishlari;
- Ertak qahramonlarini hayotiy misollar bilan ibrat tariqasida tushintirib berishi lozim.

Yuqoridagilar birlamchi omillar bo'lib yaxlit ko'rinishga kelsagina biz farzandlarimizga kitobga nisbatan mehr va qiziqish uyg'ota olamiz.

Birinchi bor ota-onalik baxtiga musharraf bo'lgan yosh oila sohiblari go'dagini bag'riga bosgancha o'z zamonasining donishmandi huzuriga borishibdi:

-Biz farzandimizning har tomonlama mukammal inson bo'lishini istaymiz, shuning uchun sizning oldingizga masls'hst so'rab keldik. Bola tarbiyasini qachondan boshlashimiz kerak?-deb so'rashibdi.

-Farzandingiz necha oylik bo'ldi?-savol beribdi donishmand.

-Endigina bir oylik bo'ldi.

-Unda bolani tarbiyalashga bir oy kechikibsizlar, degan ekan donishmand.

Bola tarbiyasi haqidagi ushbu rivoyat barchamizga malum. Avvalo farzand tarbiya qilayotgan ota-onaning o'zi tarbiyali bo'lmos' i ayni haqiqatdir. Hali oq qorani tanimagan go'dak ilk tasavvurni. Ilk tarbiyani o'z oilasi va ota-onasidan oladi "Bola bamisoli oq qog'ozdir, unga nimani bitsang ana o'shani olasan" degan hikmatlar zamirida ham asriy qadriyatlarimiz mujassamdir. Turli muhit, turli oilada voyaga yetgan bolalarning barkamol inson bo'lib shakllanishida tarbiyachilarining o'rni va pedagogik tajribasi albatta beqiyos. Voyaga yetayotgan bolalarimiz siz-u bizdan o'rnak olishadi. Yoshlar kitob o'qimay qo'ydi, deb aytayotgan bazi ota-onalarga qarata shunday demoqchiman:

Uyingizga kutubxonangiz bormi? Farzandingizga kitob sovg'a qilganmisiz? O'zingizchi o'zingiz ham kitob o'qiganmisiz? Bu savollarga "ha" deb javob qaytarganlarning bolalari ham kitobga mehr qo'yib ulayg'iyishi, shubhasiz. Amerika Pediatrlar uyushmasi tadqiqotlarining natijasiga ko'ra, bola bilan har kuni o'n besh daqiqa davomida kitob mutolaa qilishning foydasi katta ekan.

Bola miyasining 90% uning 3 yoshigacha qadar rivojlanib bo'ladi. Shu davrda bolaga kitob o'qish miya rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Uch yoshlik bolaning so'z boyligiga qarab u 3-sinfda "o'qish"dan necha baho olishini oldindan bilsa bo'ladi. Kuniga o'n besh daqiqa davomida bolaga kitob o'qib berilsa, u bir yil mobaynida bir millionga yaqin yangi so'zni eshitgan bo'ladi. Birinchi sinf kitoblarini o'qiy olmagan bola, keyinchalik to'rtinchi sinf kitoblarini ham o'qiy olmaydi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ko'p kitob o'qilgan bo'lsa, ular birinchi sinfga qadar boshqalarga nisbatan tezroq alifbeni o'rganadi. Yigirmagacha sanay oladi va o'z ismlarini yoza oladi. Bolaning maktab yoshigacha bo'lgan davrida ota-onasi bilan kitob o'qishi, uni maktab davrida kitobga qiziquvchanligi oshishiga olib keladi. Yoshligidan kitob o'qishga odatlangan bolada til nuqsonlari, gapirishda qiyinchiliklar bo'lishi kam namayon bo'ladi. O'qish bola bilimlarining asosidir o'qish boshqalarning hissiyotlarini tushunishiga yordam beradi.

Kitobdan olingen ma'lumot miyaga televizor, internet va radiodan qabul qilingan malumotdan ko'ra ko'proq ijobjiy tasir qiladi. undan tashqari kitob o'qish zehinni charhlab, bola diqqatini bir joyda uzoq vaqt ushlay olish qobiliyatini kuchaytiradi.

Kitob tili adabiy va chiroylidir. Albatta kitob mutolaasi barcha insonlarda o'zgacha zavqli va shukuhli. Ayniqsa kattalarning, ota-onalarning bolalariga vaqt ajratib kitob o'qib berishlari bolaga bir tomondan kitobga bo'lgan mehrni oshirsia ikkinsi tomondan farzandlar o'zlariga qaratilayotgan etibordan xursand bo'ladilar. Statistik tahlillarning ko'rsatishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarga ota-onal kitob o'qib bersa kitobga bo'lgan qiziqish yuz foiz bo'larkan. To'rtinchi sinfga kelib qiziqish 54%ga tushib ketar ekan. Buning sababi esa ota-onaning bola bilan birgalikda kitob o'qimay qo'yishi ekan. Uyda 6-8 yoshli bolalarga ota-onasi kitob o'qib berish davrini bolalarning biri kitobni sevganlari uchun xush ko'rsalar, biri ota-onasi bilan ajoyib vaqt o'tkazayotganlari uchun yaxshi ko'rар ekanlar. Bundan ko'rinish turibdiki, farzanlarimizni maktabgacha yosh davridan to maktab davriga qadar ota-onalar birgalikda kitob o'qishlari. Uy vazifalarini nazorat qilishlari lozim. Zero oila bag'rida ardoqlab, hyech kimdan kam qilmay undirayotgan navniholingiz kelajakda buyuk Navoylar, Beruniylar, Sohibqironlar bo'lib yetishishlari darkor.

Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham shu maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-onal bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda o'zlarini namuna bo'lishlari va o'zlarini kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-onal kitobga mehr qo'ygan bo'lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo'ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo'ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so'zi, qilayotgan ishini o'ylab bajaradigan, bir so'z bilan aytganda, o'zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo'lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g'oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo'lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bolada o'qish malakalarni shakllantirish negizida og'zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarmizni hayot yo'llarida hamroh va maslahatgo'y, bir umrlik sodiq do'st –kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda o'z hissamizni qo'shgan bo'lardik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. — T., «O'qituvchi», 1993-y.
2. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish (foydalanuvchiga ko'rsatma va kartochkalar majmui) .R.I.Sunnatova, N.G.Irgashova tahrirlari ostida-Moskva-Toshkent:ITD<<SMI-AZIYA>>--san'atjurnali,2008-156
3. D.B.Elkonin "Bolalar psixologiyasi" Ched. - m.: "Akademianing" nashriyot markazi, 2007 yil. - 384 p.
4. Inomova M. "Farzand – nihol, ota-oná - bog‘bon". Toshkent, "O'qituvchi", 1983 y.
5. Jalolova G. Q., "Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash". metodik tavsiya. Toshkent, 2004 yil.
6. Toshova Shaxnoza T .- "Oilaning maktabgacha ta'lim muasasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi"-*Golden Brain -2023*
- 7.Toshova Shaxnoza T-“Maktabgacha ta’limda sog’lom turmush tarzini shakllantirishda zarur bo’lgan shart-sharoitlarni yaratish”- *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 1 (6), 258-262-2022*
- 8.Toshova Shaxnoza T . -“Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab avaylash,g‘amxo'rlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali sog’lom turmush tarzini rivojlantirish”-*Interpretation and research-2023*
- 9.Toshova Shaxnoza T.-“Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish”- *Analysis of world scientific views International Scientific Journal 1 (6), 56-61*
- 2023.
- 10.Toshova Shaxnoza T.- “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish mazmuni”-*Analysis of world scientific views International Scientific ”-2023*